



Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 4-bosqich talabasi

[sultonovdoston07@gmail.com](mailto:sultonovdoston07@gmail.com)

## YETIM BOBOJONOV HAYOTI VA IJODI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek teatr san'atining tashkil topishi va uning yuksalishiga hissa qo'shigan yetuk san'atkori, rejissyor Yetim Bobojonov haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** xarakter, xarakterlilik, spektakl, aktyor, rejissor, drama, dramaturg, teatr, Fozil, «General Rahimov», Toshsovet, «Tohir va Zuhra», «Muqanna».

O'zbek teatr san'atining asoschilaridan biri, taniqli o'zbek rejissyori va aktyori Yetim Bobojonov (asl ismi Fozil) 1904 yilda Toshkentda tug'ilgan. U dastlabki ijodiy faoliyatini Toshkentdagi teatr gruppasida boshlagan O'zbek teatri asoschilaridan. Sahna faoliyatini 1920 yil teatr truppassi (Toshkent) da kichik rollarni ijro etishdan boshlagan. Moskva o'zbek drama studiyasida (1924-27) K. Stanislavskiyning ilg'or sahna uslubi, E. Vaxtangov rejissurasini o'rgangan, 1927 yildan Hamza teatrinda aktyor va rejissyor. Hajviy va xarakterli rollarni mahorat bilan ijro etgan: Tartale (K. Gossi, "Malikai Turandot", 1927), Brigella (K. Goldoni, "ikki boyga bir malay", 1927) va boshqalar. Yetim Bobojonov 1924—1927 yillarda Hamza teatrining Mannon Uyg'ur boshchiligidagi bir guruh aktyorlari bilan birligida Moskvada, o'zbek drama studiyasida teatr san'ati sir-asrorlaridan xabardor bo'lib qaytgach, Hamza teatrinda aktyorlik va rejissyorlik qilarkan, avval K. Gotstsining «Malikai Turandot»ida Tartalya, K. Goldonining «Ikki boyga bir malay»ida Brigella, Gogolning «Revizor»ida shahar hokimi va boshqa rollarni ijro etib, aktyor sifatida asta-sekin tomoshabinlarga tanila boshladи, so'ng rejissyorlikka qo'l urdi.

U rejissyorlik faoliyatini Buxoro teatrinda boshlab, bir necha o'zbek dramaturqlarining asarlarini sahnalashtirdi. Y. Bobojonov 1934 yilda Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatrda K. Yashinining «Tor-mor» asarini muvaffaqiyatli sahnalashtirgandan so'ng, birin-ketin F. Shillerning «Makr va muhabbat», Hamzaning «Boy ila xizmatchi», K. Yashin va A. Umariyning «Hamza», K. Yashinining «General Rahimov» kabi asarlarni ham sahnaga qo'yib, madaniy jamoatchilikning nazariga tushdi.



Ayniqsa, Y. Bobojonovning rejissyorlik faoliyatida «Boy ila xizmatchi» spektakli alohida o'rinn tutadiki, 60 yil sahnadan tushmagan. San'atkori sahnaga qo'ygan spektakllarda va ijro rollarida xalq hayotini aniq va ishonchli tarzda aks ettirdi, qahramonlar ruhiyatini bor-bo'yi bilan ochishga erishdi. Y.



Bobojonov respublikamizdagi bir qator teatrlarga ijodiy ko'mak berish bilan birga, 1943—1946 yillarda Yangiyo'l va 1946—1948 yillarda Toshsoviet teatrлarida badiiy rahbar bulib faoliyat ko'rsatdi. S. Abdullaning «Tohir va Zuxra», H. Olimjonning «Muqanna», V. Vitkovich va G'. G'ulomning «Xo'ja Nasriddin», K. Yashinning «Oftobxon» spektakllarini sahnalashtirib, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Nabi Rahimov, Mahmudjon G'ofurov, Abdurauf Boltayev, Farog'at Rahmatova kabi teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazishda, ularning san'atda o'z o'rinalariny topishlarida munosib hissa qo'shdi. Aktyorlik, rejissyorlik va pedagogik ishlарini baqamti olib borgan.

Y.Bobojonov 1950—1956 yillarda Toshkent teatr institutida (Hozir M. Uyg'ur nomidagi Toshkent san'at instituti) o'qituvchilik qilib, yosh iste'dodli aktyorlarni tarbiyalashda ko'p mehnat sarflad.

Yetim Bobojonov 1956 yilda Toshkent shahrida vafot etdi. Yetim Bobojonov «Boy ila xizmatchi», «Tohir va Zuhra», «Muqanna» kabi spektakllarni sahnalashtirgan yetuk rejissyor, respublikamizdagi bir qator teatrlarning ijodiy faoliyatini yaxshilashga ko'mak bergen badiiy rahbar tashkilotchi sifatida o'zbek teatr san'ati tarixida o'z munosib o'rniga ega

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat, 2006.
2. Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. –T.: Musiqa, 2007.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002.